

JAZO INSTITUTINING SHAKLLINISH BOSQICHLARI

O'narboyev Shoxzamon Dilshodjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti mutaxassisligi magistranti

onarboyevshoxzamon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19757853>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jazo institutining tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning "Talio" huquqidan boshlab zamonaviy insonparvarlik tamoyillarigacha bo'lgan transformatsiyasi tahlil qilinadi. Muallif turli davrlar va sivilizatsiyalardagi jazo falsafasini qiyosiy o'rganib, O'zbekiston Respublikasining zamonaviy jinoiy-huquqiy siyosatidagi tendensiyalarni asoslab beradi.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords:

O'zbek tilida: Jazo tizimi, Talio huquqi, Xammurapi qonunlari, Islom huquqi, Inkvizitsiya, Chezare Bekkaria, Jeremi Bentam, Mishel Fuko, Nelson Mandela qoidalari, Restorativ odil sudlov, Reabilitatsiya, O'zbekiston-2030 strategiyasi.

Rus tilida: Система наказаний, право Талиона, Законы Хаммурапи, Исламское право, Инквизиция, Чезаре Беккариа, Иеремия Бентам, Мишель Фуко, Правила Нельсона Манделы, Восстановительное правосудие, Реабилитация, Стратегия Узбекистан-2030.

Ingliz tilida: Punishment system, Lex Talionis, Code of Hammurabi, Islamic Law, Inquisition, Cesare Beccaria, Jeremy Bentham, Michel Foucault, Nelson Mandela Rules, Restorative Justice, Rehabilitation, Uzbekistan-2030 Strategy.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda umumilmiy va maxsus huquqiy metodlardan foydalanildi. Xususan, **tahlil va sintez metodi** orqali jazo tushunchasi va uning elementlari o'rganildi. **Qiyosiy-huquqiy metod** yordamida jazo tizimining rivojlanish bosqichlari baholandi. Tadqiqot jarayonida, shuningdek, quyidagi metodlardan ham foydalanildi:

Tarixiy-qiyosiy tahlil: Qadimgi dunyo, O'rta asrlar, Yangi davr va zamonaviy bosqichlardagi huquqiy manbalar o'zaro solishtirildi.

Mantiqiy-huquqiy interpretatsiya: Xalqaro hujjatlar (Nelson Mandela qoidalari) va milliy qonunchilik (JK 42-modda) normalarining mazmun-mohiyati tahlil qilindi.

Bibliografik tahlil: Ch. Bekkaria, J. Bentam, M. Fuko va X. Zer kabi olimlarning nazariy qarashlari o'rganildi.

KIRISH (Introduction)

Jazo instituti insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida jamiyat tartibini saqlashning asosiy vositasi bo'lib kelgan. Dastlabki bosqichlarda jazo asosan qasos g'oyasiga tayangan va markazlashmagan xarakterga ega edi. Mazkur bo'limda "Talio" (Lex Talionis) tamoyilining mohiyati, uning Xammurapi qonunlari, Rimning 12 jadval qonunlari va "Avesto"dagi ifodalanishi o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi jazo tushunchasining oddiy qasosdan ilmiy asoslangan reabilitatsiya vositasiga aylanish jarayonini yoritishdan iborat.

Tadqiqot natijasida jazo evolyutsiyasining to'rtta asosiy davri aniqlandi:

1. **Qadimgi davr (Mutanosib qasos):** Jazo "ko'zga ko'z, tishga tish" tamoyili asosida faqat yetkazilgan zararni qoplash bilan cheklangan.

2. **O'rta asrlar (Institutsional jazo):** Sharqda Islom huquqi (Hadd, Qisos, Ta'zir) orqali jazo tizimlashtirildi. G'arbda esa Inkvizitsiya va ommaviy jazolash orqali jazo siyosiy va diniy nazorat quroliga aylandi.
3. **Yangi davr (Insonparvarlik burilishi):** Ch. Bekkaria tomonidan jazoning muqarrarligi, J. Bentam tomonidan esa uning utilitar (foydalilik) va nazorat (Panoptikon) funksiyalari ilgari surildi.
4. **Zamonaviy davr (Reabilitatsiya):** BMT standartlari asosida jazo mahkumni jamiyatga qaytarish va restorativ odil sudlovni (X. Zer) ta'minlashga yo'naltirildi.

Shunday qilib, jazo tushunchasi o'zining lug'aviy va etimologik ildizlariga ko'ra faqat salbiy ta'sir chorasi emas, balki qilmishga yarasha adekvat javob berish, muvozanatni ta'minlash va adolatni tiklash g'oyasiga asoslangan universal kategoriya sifatida shakllangan. Bu mohiyat dastlabki semantik doirada mukofotlash va qarshi ta'sir elementlarini ham o'z ichiga olgan bo'lib, keyinchalik ijtimoiy-huquqiy munosabatlar rivoji jarayonida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasi mazmunini kasb etgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazo jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan qo'llaniladigan majburlov chorasi sifatida belgilangan bo'lib, uning asosiy maqsadlari mahkumni axloqan tuzatish, jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda jamiyatda yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 7-moddasida mustahkamlangan insonparvarlik, individuallashtirish va bosqichma-bosqichlik tamoyillari jazoning nafaqat jazolovchi, balki tarbiyaviy va profilaktik ahamiyatini ta'minlab, uni shaxsni jamiyatga qayta moslashtirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rsatadi.

Jazo shunchaki jismoniy ta'sir emas, balki jamiyat a'zolari o'rtasidagi barqarorlikni saqlash bo'yicha tuzilgan ijtimoiy kelishuvning bevosita natijasidir. Jan-Jak Russo o'zining "Ijtimoiy shartnoma" nazariyasida bu g'oyani chuqur va tizimli ravishda ochib bergan bo'lib, uning asosiy mazmuni insonning tabiiy holatidan fuqarolik holatiga o'tish jarayonida jamiyatning o'zini o'zi boshqarish huquqini shakllantirishdan iboratdir. Russo fikricha, inson tabiatan erkin tug'iladi, ammo jamiyatdagi mavjud tuzumlar uni har tomondan zanjirlab qo'ygan¹. Shu sababli, tabiiy erkinlikning cheklanganligini bartaraf etish uchun odamlar o'zaro ijtimoiy shartnoma tuzadilar, ya'ni har bir shaxs o'zining mutlaq tabiiy erkinligining bir qismini umumiy manfaat uchun jamiyatga topshiradi va evaziga jamiyatning barcha a'zolarini himoya qiluvchi fuqarolik erkinligini qo'lga kiritadi. Bu shartnoma orqali davlatning jazolash huquqi paydo bo'ladi, chunki har bir jinoyatchi ijtimoiy huquqlarga tajovuz qilish orqali nafaqat alohida shaxslarga, balki butun jamiyatning shartnomasiga qarshi chiqadi va o'z mamlakatiga isyonchi hamda xoin sifatida namoyon bo'ladi. Qonunlarni buzish orqali jinoyatchi endi jamiyat a'zosi bo'lishni to'xtatadi, shuning uchun davlatni asrab qolish uning o'z erkin yashashi bilan hech qanday mos kelmaydi. Russo bu jarayonda "umumiy iroda" (volonté générale) tushunchasini markaziy o'ringa qo'yadi, ya'ni jamiyatning haqiqiy irodasi alohida shaxslarning shaxsiy manfaatlari yig'indisi emas, balki umumiy manfaatga xizmat qiluvchi yagona va ajralmas irodadir. Aynan shu umumiy iroda asosida qonunlar qabul qilinadi va jazo choralari qo'llaniladi, chunki jazo shartnomaning buzilishiga qarshi javob sifatida jamiyatning o'zini himoya qilish mexanizmi hisoblanadi. Nazariyaga ko'ra, davlatning suvereniteti xalqqa tegishli bo'lib,

¹ <https://www.earlymoderntexts.com/assets/pdfs/rousseau1762.pdf>

hukumat faqat umumiy irodani amalga oshiruvchi vosita sifatida ishlaydi, agar hukumat shartnomani buzsa, xalq uni o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega. Shu tariqa, Russo ijtimoiy shartnoma nazariyasi jazoni nafaqat repressiv vosita, balki ijtimoiy kelishuvni saqlash va fuqarolik erkinligini himoya qilishning zaruriy sharti sifatida talqin etadi, bu esa zamonaviy jinoyat huquqida jazoning legitimligi va maqsadga muvofiqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Natijada, jazo instituti o'zining butun tarixiy evolyutsiyasi davomida oddiy qasosdan ilmiy asoslangan, insonparvar va maqsadga muvofiq huquqiy vositaga aylangan bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston jinoyat huquqida ham adolat, profilaktika va shaxsni tiklash tamoyillarini birlashtirgan holda jamiyatdagi huquqiy tartibotni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lmoqda.

MUHOKAMA. I. "Talio" huquqi (*Lex Talionis*). Jazo institutining shakllanishidagi ilk davr qadimgi dunyo davlatlari sivilizatsiyasining yuqori bosqichiga to'g'ri keladi. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida jazo tushunchasi bugungi kundagi huquqiy tizimlardan tubdan farq qilib, asosan qasos g'oyasiga tayangan holda shakllangan. Ushbu yondashuv jamiyatda tartibni saqlashning eng sodda va bevosita mexanizmi sifatida namoyon bo'lgan, bunda jabrlanuvchi yoki uning yaqinlari adolatni o'zlari tiklash huquqiga ega deb qaralgan. Shu jarayonda jazo tizimi markazlashmagan bo'lib, u ko'proq ijtimoiy odatlar va urf-odatlar asosida boshqarilgan.

Mazkur davrning muhim huquqiy tamoyillaridan biri sifatida "Talio" prinsipi shakllangan bo'lib, u jazoni sodir etilgan qilmishga mutanosib tarzda belgilash g'oyasini ifodalagan. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iborat ediki, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar aynan shunday shaklda va miqdorda qaytarilishi lozim deb hisoblangan. Bu prinsip o'sha davr ijtimoiy ongida adolatning eng to'g'ri va tushunarli ko'rinishi sifatida qabul qilingan, chunki u har qanday ortiqcha jazoni inkor etib, muvozanatni ta'minlashga qaratilgan edi.

Talio tamoyili nafaqat jazoni belgilash usuli, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini ham bajargan. Ayniqsa, u cheklanmagan qasos olish, ya'ni avloddan-avlodga o'tib ketuvchi qonli adovatlarning oldini olishda muhim rol o'ynagan. Chunki mazkur prinsip qasosni aniq chegaralarga solib, uni sodir etilgan zarar doirasidan chiqmasligini ta'minlagan. Natijada, jamiyatda nisbatan barqarorlik yuzaga kelib, tartibsiz zo'ravonliklar kamayishiga xizmat qilgan.

Biz hayotimizda "Ko'zga ko'z, tishga tish", "Qonga qon, jonga jon" kabi so'zlarni eshitganmiz va ba'zan hazil-mutoyiba qilib o'zimiz ham qo'llaymiz. Qiziqarlisi ushbu so'zlar o'zining tarixiy ildiziga ega ekan, xususan, Bobil hukmdori Xammurapi qonunlarida (mil. avv. XVIII asr) tarixdagi eng yaxshi tizimlashtirilgan Talio namunasi. Unda jazo qilmishning xarakteriga (o'ziga xos xususiyati va miqdor ko'rsatkichlariga) qarab qat'iy belgilangan. Misol sifatida ushbu qonundan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

196-paragraf: "Agar kishi boshqa kishining ko'zini chiqarsa, uning ham ko'zi chiqariladi"² va 200-paragraf: ("Agar kishi tengdoshining tishini qoqib tushirsa, uning ham tishi qoqib tushiriladi"³).

Shuningdek, Rimning 12 jadvallik qonunlari ham ushbu Talio institutiga misol bo'la oladi. Ushbu qonunning 8-jadvali 2-bandi quyidagicha bayon etilgan: "*Si membrum rupit, ni cum eo*

²<https://avalon.law.yale.edu/ancient/hamframe.asp>

³ O'sha manba

pacit, talio esto - Agar kimdir boshqa bir shaxsning tana a'zosini mayib qilsa (sindirsa), u bilan tovon (kompensatsiya) to'lash borasida kelishuvga erishilmagan taqdirda, aybdorga nisbatan aynan shunday (qilmishiga yarasha) qasos chorasi qo'llanilishi lozim"⁴.

"Avesto"da, xususan uning Videvdot (yovuz ruhlarga qarshi qonunlar) qismida talio (qasos) tamoyili uchraydi: "Qadimgi zardushtiylik an'analariga ko'ra (masalan, Tansar xatida qayd etilishicha), birovga zarba bergan kishi xuddi shunday zarba olishi, jarohat yetkazgan esa xuddi shunday jarohatlanishi belgilangan bo'lgan"⁵. Ko'rib turganimizdek, qadimgi davrda ushbu so'z yuritilayotgan talio tamoyili Yevropa, Yaqin sharq va Markaziy osiyo davlatlarida mavjud bo'lgan hamda Sharqiy osiyoda ham bu kabi tamoyil mavjudligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud.

II. O'rta asrlar davrida jazo tushunchasi oddiy "qonli qasos" (talio) tamoyilidan chiqib, diniy, axloqiy va davlat tomonidan tartibga solinadigan tizimli majburlov choralari aylangan. Bu davrda jazo nafaqat jazolash, balki adolatni tiklash va ijtimoiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida qaralgan.

Sharq uyg'onishi va Islom huquqi (fiqh) ta'siri.

Markaziy Osiyoda jazo tizimi asosan shariat qoidalariga tayanib shakllangan. "Jazo" atamasi o'z mohiyatida qilmishga yarasha mukofot yoki javob qaytarish ma'nosini anglatib, bu davrda aynan shu mazmunda qo'llanilgan.

"Jazolar uch asosiy guruhga ajratilgan:

a) Hadd: Alloh huquqlariga tajovuz qilganlik uchun qat'iy belgilangan jazolar. Masalan, o'g'rilik yoki zino kabi jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Bu jazolarni o'zgartirish yoki bekor qilish hech kim vakolatiga kirmagan.

b) Qisos va diya: Qadimgi talio tamoyilining rivojlangan ko'rinishi. Bunda jabrlanuvchiga aybdordan qasos olish yoki uning o'rniga moddiy tovon olish huquqi berilgan. Bu yondashuv jamiyatda kelishuv va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

c) Ta'zir: Sudya ixtiyoriga berilgan jazolar turi. Ular aniq belgilab qo'yilmagan bo'lib, vaziyatga qarab belgilanadi. Asosiy maqsad — aybdorni tuzatish va uni jamiyatga qayta moslashtirish"⁶.

G'arbiy Yevropa: Feodal huquq va Inkvizitsiya. 1252-yilda Papa Innokentiy IV tomonidan chiqarilgan "Ad extirpanda" bullasi (farmoni). Ushbu hujjat bilan cherkov va davlat sudlariga "haqiqatni aniqlash" (ya'ni iqrorlik olish) uchun qiynoqdan foydalanishga rasman ruxsat berilgan⁷. Keyinchalik bu Nikolay Eymerikning "Directorium Inquisitorum" (1376) qo'llanmasida tizimlashtirilgan⁸. Bu davrda jinoyatchilarga jazo ular qilmishini isbotlash uchun ham ishlatilishi bizningcha mantiqsizlik va adolatsizlikdir. Lekin tarix bizga voqealar aynan shunday bo'lganligini ko'rsatib turibdi.

Mishel Fuko tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar jazo tizimining tarixiy evolyutsiyasini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Uning "Nazorat va jazo: Qamoqxona tug'ilishi" asarida o'rta asr jamiyatidagi jazolash amaliyoti chuqur tahlil qilinib, u oddiygina jinoyatga javob chorasi emasligi asoslab beriladi: Fuko fikricha, bu davrda

⁴ https://avalon.law.yale.edu/ancient/twelve_tables.asp

⁵ Tarixiy-adabiy yodgorlik / Tarjimon Asqar Mahkam. – Toshkent: Sharq, 2001. – 384 b.

⁶ <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/acref/9780195125580.001.0001/acref-9780195125580>

⁷ <https://www.newadvent.org/cathen/08026a.htm>

⁸ O'sha manba

jazo ommaviy sahnalashtirilgan jarayon bo'lib, uning asosiy vazifasi jinoyatchini jazolashdan ko'ra kengroq ijtimoiy va siyosiy ma'noga ega edi⁹. Aniqroq qilib aytsak jinoyatchini omma oldida jazolash jinoyatlar sodir etilishini to'xtatishga qodir chora sifatida ko'rilgan. Bu jazoning tarbiyavi aahamiyati sifatida baholanadi.

O'rta asrlardagi jazolash amaliyotida "shafqatsiz tomosha" fenomeni alohida o'rin tutgan. Bunday jazolar odatda omma oldida, katta tantana va marosim elementlari bilan amalga oshirilgan. Bu jarayon nafaqat jinoyatchining jismoniy azoblanishini ko'zda tutgan, balki tomoshabinlarga kuchli psixologik ta'sir o'tkazishni ham maqsad qilgan. Shu orqali hokimiyat o'zining mutlaq ustunligini namoyish etib, jamiyat a'zolariga itoatkorlik zarurligini eslatib turgan.

"Decretum Gratiani" (Gratsian Dekretlari, 1140-yil). Bu o'rta asrlar cherkov huquqining asosiy to'plami bo'lib, unda jinoyat — Xudoga qarshi qilingan "gunoh" deb talqin qilinadi. Jazo esa "poenitentia" (tavba/pushaymonlik) orqali ruhni jahannam azobidan qutqarish uchun zarur bo'lgan "poklovchi azob" sifatida ko'riladi¹⁰.

III. Yangi davrda jazo tushunchasi va maqsadi. Yangi davr (XVII-XIX asrlar) jazo tarixidagi eng katta burilish nuqtasi hisoblanadi. Aynan shu davrda jazo shaxsning tanasiga azob berishdan (jismoniy jazo), uning erkinligini cheklashga (qamoq) va *ruhini "tuzatish"*ga o'tdi. Bu davr "*Ma'rifatparvarlik davri inqilobi*" ("Renessans - uyg'onish davri") deb ham ataladi.

1764-yilda Chezare Bekkarianing "Jinoyat va jazolar to'g'risida" asari chop etilishi bilan zamonaviy jinoyat huquqi vujudga keldi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. U o'z asarlari orqali jinoyatchi shaxsiga to'xtalib o'tgan, negaki jazodan ko'zlangan maqsad jinoyatchini axloqan (ruhan) tarbiyalashdir. Jazoning maqsadi - qiynash emas, balki yangi jinoyatlarning oldini olish (prevensiya) ekanligini aynan ushbu olim o'z g'oyalarida ifodalagan¹¹. Bekkaria jazoning og'irligi emas, balki uning muqarrarligi (qochib qutulib bo'lmasligi) jinoyatchilikni kamaytirishini isbotladi. U o'lim jazosiga hamda jismoniy azob-u qiynoqlarga qarshi chiqqan yirik huquqshunoslardan biri edi.

Ushbu davrda, shuningdek, jazo orqali xulq-atvorni shakllantirish (Utilitarizm) qarshlari Jeremi Bentam (Jeremy Bentham) tomonidan o'ylab topilgan, asoslangan va ilgari surilgan. Muallif tomonidan yozilgan quyida fikr bizgacha yetib kelgan: "Inson qanchalik qattiq kuzatuv ostida ekanligini his qilsa, u shunchalik yaxshi xulq-atvorni namoyish etadi. Jazoning maqsadi - kamroq zarar yetkazib, ko'proq foyda (tuzatish) olishdan iboratdir"¹². Jinoiy jazo tizimida nazoratning qat'iyligi mahkumning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirishda muhim psixologik omil bo'lib xizmat qiladi. Inson o'z xatti-harakatlari ustidan doimiy monitoring olib borilayotganini his etishi unda huquqbuzarlikdan tiyilish va ijtimoiy mas'uliyatni anglash tuyg'usini shakllantiradi. Zamonaviy jinoiy-huquqiy siyosatda ushbu yondashuv probatsiya institutining rivojlanishi va elektron nazorat vositalarining joriy etilishi bilan bevosita bog'liqdir. Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda ham jazolarning muqarrarligi va qat'iy ma'muriy kuzatuv tizimi jinoyatchilikning oldini olishda asosiy preventiv vosita sifatida e'tirof etilgan. Binobarin nazorat mexanizmlarining takomillashtirilishi mahkumni jamiyatdan ajratmagan

⁹ <https://foucault.info/documents/foucault.disciplineAndPunish.panOpticism/>

¹⁰ <https://dn790008.ca.archive.org/0/items/canonlaw00myln/canonlaw00myln.pdf>

¹¹ <https://oll.libertyfund.org/titles/voltaire-an-essay-on-crimes-and-punishments>

¹² <https://www.ucl.ac.uk/laws/research/research-projects/bentham-project/about-jeremy-bentham/panopticon>

holda uning axloqini tuzatish imkonini beradi. Jazoning utilitar mohiyati yetkaziladigan zararni minimallashtirish va olinadigan ijtimoiy foydani maksimallashtirishda namoyon bo'ladi.

IV. Zamonaviy davr (XX asr oxiri - XXI asr) jazo tarixidagi eng yuqori bosqich bo'lib, unda jazo endi shunchaki "davlat majburlovi" emas, balki "inson huquqlari" va "reabilitatsiya" (qayta ijtimoiylashtirish) hamda liberallashtirish bilan bevosita bog'liq ekanligini kuztishimiz mumkin. Xususan, "Mahbuslar bilan muomala qilishning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Standart minimal qoidalari" (Nelson Mandela qoidalari - 2015-yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 70/175-sonli rezolyutsiyasi bilan bir ovozdan qabul qilingan)da quyidagilar bayon etilgan: "Ozodlikdan mahrum qilish yoki shunga o'xshash ozodlikni cheklovchi jazolarning maqsadi, birinchi navbatda, jamiyatni jinoyatchilikdan himoya qilish va residivni (jinoyatning takrorlanishini) kamaytirishdir. Ushbu maqsadlarga faqatgina mahkumlik muddati imkon qadar shaxsning ozodlikka chiqqanidan keyin jamiyatga qayta ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun foydalanilgandagina erishish mumkin, toki ular qonunga itoatkor va mustaqil hayot kechira olsinlar"¹³. BMT dunyodagi eng nufuzli va eng ko'p ishtirokchiga ega xalqaro tashkilot ekanligi hech kimga sir emas. Yuqoridagi jumlar orqali biz aytishimiz mumkinki dunyodagi jinoiy jazo tizimlari liberallashtirib bormoqda va undan ko'zlngan maqsad ham yakdildir, ya'niki shaxsni axloqan tuzatib yana uni jamiyatga "qo'shib yuborish". Xovard Zer (Howard Zehr) so'zlarida quyidagi fikrni ilgari suradi: Odil sudlov jazolashdan ko'ra, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash va tomonlarni murosaga keltirishga qaratilishi lozim¹⁴. Bu orqali biz tushunishimiz lozim bo'lgan jihat bu jinoyat sodir etgan shaxsni jazolash masalasini faqatgina davlat hal qilmasligi lozim, qaysi ma'nodaki jinoyat sodir etgan shaxs jabrlanuvchi bilan yarshsa, zararni qoplasa, uzr so'rasa yokida shunga o'xshash pushaymonlik va o'zini normal insonlar kabi hayotda o'rni mavjudligini ko'rsata olsa qandaydur davlat ta'sir chorasi qo'llanilishi, jazolanishi shart emas ekan.

XULOSA. Shunday qilib, jazo tushunchasi o'zining lug'aviy va etimologik ildizlariga ko'ra faqat salbiy ta'sir chorasi emas, balki qilmishga yarasha adekvat javob berish, muvozanatni ta'minlash va adolatni tiklash g'oyasiga asoslangan universal kategoriya sifatida shakllangan. Bu mohiyat dastlabki semantik doirada mukofotlash va qarshi ta'sir elementlarini ham o'z ichiga olgan bo'lib, keyinchalik ijtimoiy-huquqiy munosabatlar rivoji jarayonida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasi mazmunini kasb etgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazo jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan qo'llaniladigan majburlov chorasi sifatida belgilangan bo'lib, uning asosiy maqsadlari mahkumni axloqan tuzatish, jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda jamiyatda yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 7-moddasida mustahkamlangan insonparvarlik, individuallashtirish va bosqichma-bosqichlik tamoyillari jazoning nafaqat jazolovchi, balki tarbiyaviy va profilaktik ahamiyatini ta'minlab, uni shaxsni jamiyatga qayta moslashtirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rsatadi.

Jazo institutining tarixiy shakllanishi bir necha bosqichdan o'tgan bo'lib, qadimgi davrda talio huquqi asosida qasos va muvozanat tamoyili ustunlik qilgan, ya'ni yetkazilgan zarar aynan shunday shakl va miqdorda qaytarilishi lozim deb hisoblangan. O'rta asrlarda esa jazo diniy va

¹³ <https://docs.un.org/en/A/RES/70/175>

¹⁴ <https://zehr-institute.org/resources/restorative-justice-and-system-change.html>

axloqiy talqinlar ta'sirida tizimli majburlov choralariga aylangan, Markaziy Osiyoda shariat qoidalari asosida hadd, qisos va ta'zir kabi turlar shakllangan, G'arbiy Yevropada esa inkvizitsiya va ommaviy jazolash amaliyotlari orqali hokimiyatning ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo'lgan. Yangi davrda Chezare Bekkaria va Jeremi Bentam kabi olimlarning g'oyalari bilan jazo jismoniy azobdan ruhiy tuzatish va oldini olishga o'tgan, uning muqarrarligi va foydaliligi jinoyatchilikni kamaytirishning asosiy omili sifatida ko'rsatilgan. Zamonaviy davrda esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nelson Mandela qoidalari va Xovard Zerning qarashlariga asosan jazo liberallashib, asosiy maqsadi jamiyatni himoya qilish bilan birga mahkumni qayta ijtimoiylashtirish va residivni kamaytirishga qaratilgan.

Natijada, jazo instituti o'zining butun tarixiy evolyutsiyasi davomida oddiy qasosdan ilmiy asoslangan, insonparvar va maqsadga muvofiq huquqiy vositaga aylangan bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston jinoyat huquqida ham adolat, profilaktika va shaxsni tiklash tamoyillarini birlashtirgan holda jamiyatdagi huquqiy tartibotni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Russo, Jan-Jak. Ijtimoiy shartnoma yoki siyosiy huquq tamoyillari. 1762 y. [Elektron resurs]. - URL: <https://www.earlymoderntexts.com/assets/pdfs/rousseau1762.pdf>
1. 2.Xammurapi qonunlari. [Elektron resurs]. - URL:
 2. <https://avalon.law.yale.edu/ancient/hamframe.asp>
 3. Rimning 12 jadval qonunlari. [Elektron resurs]. - URL:
 4. https://avalon.law.yale.edu/ancient/twelve_tables.asp
5. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik / Tarjimon Asqar Mahkam. - Toshkent: Sharq, 2001. - 384 b.
6. Islom huquqi (fiqh). [Elektron resurs]. - URL:
 7. <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/acref/9780195125580.001.0001/acref-9780195125580>
5. Ad extirpanda bullasi (Papa Innokentiy IV farmoni). [Elektron resurs]. - URL: <https://www.newadvent.org/cathen/08026a.htm>
6. Fuko, Mishel. Nazorat va jazo: Qamoqxona tug'ilishi. [Elektron resurs]. - URL: <https://foucault.info/documents/foucault.disciplineAndPunish.panOpticism/>
7. Gratsian dekretlari (Decretum Gratiani). [Elektron resurs]. - URL: <https://dn790008.ca.archive.org/0/items/canonlaw00myln/canonlaw00myln.pdf>
8. Bekkaria, Chezare. Jinoyat va jazolar to'g'risida. [Elektron resurs]. - URL: <https://oll.libertyfund.org/titles/voltaire-an-essay-on-crimes-and-punishments>
9. Bentam, Jeremi. Panoptikon. [Elektron resurs]. - URL: <https://www.ucl.ac.uk/laws/research/research-projects/bentham-project/about-jeremy-bentham/panopticon>
10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mahbuslar bilan muomala qilishning standart minimal qoidalari (Nelson Mandela qoidalari). BMT Bosh Assambleyasining 70/175-sonli rezolyutsiyasi, 2015 yil 17 dekabr. [Elektron resurs]. - URL: <https://docs.un.org/en/A/RES/70/175>
11. Zer, Xovard. Restorativ odil sudlov va tizim o'zgarishi. [Elektron resurs] - URL: <https://zehr-institute.org/resources/restorative-justice-and-systemchange.html>